



## SUD KOMPYUTER-TEXNIK EKSPERTIZASI VA TARKIBIDA SPIRTI BO'LGAN SUYUQLIKLAR EKSPERTIZASI OBYEKTлари AHAMIYATI

**Narzullayeva Mushtariybegim Sobir qizi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7197957>

Dallilarning turlari ichida ekspert xulosasi ishni yuritishda o'zining aniqliligi, ishonchliligi va boshqa afzalliklari yuzasida ajralib turadi. Jpkning 172-moddasiga ko'ra, "Ish uchun ahamiyatli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni fan, texnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lgan shaxs o'tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lganda ekspertiza tayinlanadi".

Jpkning 173-moddasiga ko'ra, "Ish uchun ahamiyatga molik holatlarni aniqlashda ham agar buning uchun maxsus bilimlarni qo'llash zarur bo'lsa va bu holatlar isbotlashning boshqa vositalari bilan puxta aniqlanmagan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish shart".

O'z o'rnida qayd etish joizki, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar ya'ni kibernetik jinoyatlar ko'payib borgani sari sud kompyuter-texnik ekspertizasi o'tkazishga ehtiyoj yuzaga keldi, shuningdek, u raqamli sud ekspertizasi deb ham yuritiladi. Jinoyat kodeksining "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" bobidagi 278 prim 1-moddadan 278 prim 7-moddagacha bo'lgan moddalar bevosita bizga yaqqol misol bo'la oladi. Kompyuter ekspertizasi qiladigan ishlarning aksariyati bevosita ma'lumot bilan bog'liqdir. Albatta, bizga bu sohani yaxshi tushunadigan mutaxassis kerak edi. Negaki, kompyuter ma'lumotlarini bilish va tekshirish uchun maxsus bilim talab qilinadi.

Demak, bizga kompyuter sohasi bilan bog'liq holda vujudga keladigan kibernetik jinoyatlar uchun ahamiyatga molik holatlarni aniqlashda maxsus bilim kerak bo'lib, bu holatlar isbotlashning boshqa turlari bilan mustahkamlanmagan bo'lsa, sud kompyuter-texnik ekspertizasi o'tkazilishi shart.

Bevosita endi biz kompyuter-texnik ekspertizasi hal etiladigan masalalar va, shuningdek, ekspert o'z oldiga qo'yilgan savollarni bilib olamiz.

"Kompyuter-texnik ekspertizasi taqdim etilgan ashyoviy dalillarni ashyoviy dalillarni tekshirishda jinoyatga aloqador fayl, materiallarni va boshqa ma'lumotlarni aniqlash, o'chirilgan fayllarni tiklash, muayyan jinoyat ishi yoki materialga aloqador ma'lumotlarni ishlab chiqish yoki ularni chop etish mumkinligini aniqlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.

Kompyuter-texnik ekspertizasi hal etishi uchun ekspert oldiga quyidagi savollar qo'yiladi:

1. Taqdim etilgan peydjer, elektron kitobcha va boshqalarda saqlanayotgan ma'lumotlarning mazmuni aniqlansin.





2. Taqdim etilgan protsessor, axborot saqlovchi qurilmalarda ushbu jinoyatga aloqador ma'lumotlar mavjudmi, mavjud bo'lsa, ular CD diskda taqdim qilinsin.

3. Taqdim etilgan protsessor, axborot saqlovchi qurilmalarda ushbu jinoyatga aloqador ma'lumotlar yaratilganmi yoki yaratishning imkoni bormi?

4. O'chirilgan fayllarni tiklash imkoniyati bormi, imkoni bo'lsa, ushbu jinoyatga aloqador fayllar saqlansin".

Biz buning davomi sifatida mazkur ekspertiza uchun namunalash olish tartibi haqida so'z yuritamiz.

Jpkning 188-moddasiga ko'ra, "Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tirik odamning, murdaning, hayvonning, o'simlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi namunalar olishga, basharti ularning ekspert tekshiruvchi ekspert oldiga qo'yilgan savollarni hal qilish uchun zarur bo'lsa, haqlidir.

Tirik odamdan o'zida uning xususiyatlarini aks ettiruvchi: biologik – qon, soch, so'lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik – dastxat; anatomik – teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; shuningdek, ovozning xususiyatlari, kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin.

Namuna tariqasida xomashyo, mahsulot va boshqa materiallardan moddaning turga oid yoki o'ziga xos fizik yoxud kimyoviy xossalarni aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin".

Jpkning 193-moddasiga ko'ra, "Surishtiruvchi yoki tergovchi namuna olinishi kerak bo'lgan shaxsni chaqirtiradi yoki u turgan joyga borib, uni namuna olish to'g'risidagi qaror yoki sudning o'ziga kelib tushgan ajrimi bilan tanishtirib tilxat oladi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, agar kimdir rad etilgan bo'lsa, bu masalani hal qiladi. Keyin surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruvchi uchun namunalar oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanilishi mumkin.

Murdadan, shuningdek, xom ashyolardan, mahsulotlardan, boshqa materiallardan namunalar olish, eksqumatsiya qilish, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Olingan namunalar o'raladi va muhrlanadi. Keyin surishtiruvchi yoki tergovchi ularni namuna olish bayonnomasi bilan birga tegishli ekspertga yuboradi. Agar namuna olish sudning ajrimiga binonan amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ajrimni bajargan surishtiruvchi yoki tergovchi namunalarni ularni olish to'g'risidagi



bayonnoma bilan birga sudga yuboradi. Sud taraflar ishtirokida namunalarni ko'zdan kechirib, ularning haqiqiyligiga va to'la saqlanganligiga ishonch hosil qilgandan keyin olingan namunani ajrim va bayonnoma bilan birga tegishli ekspertga yuboradi.

Jpkning 195-moddaga ko'ra, "Tekshiruv o'tkazish jarayonida ekspert tomonidan ushbu kodeks 188-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan tajriba namunalari tayyorlanishi mumkin. Surishtiruvchi yoki tergovchi bunday namunalarni tayyorlash chog'ida hozir bo'lishga haqli bo'lib, bu hol ular tomonidan tuziladigan bayonnomada aks ettiriladi.

Ekspert tekshiruv o'tkazib bo'lganidan keyin namunalarni muhrlangan holda o'z xulosasiga qo'shib qo'yadi. Surishtiruvchi yoki tergovchi, sud muhokamasida esa sud va taraflar ekspert taqdim qilgan tajriba namunalarni ko'zdan kechiradilar, shundan so'ng ular ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi".

O'z o'rnida ekspertizaga tekshiriluvchi obyektlar – ashyoviy dalil, uning ayrim qismlari, modda qoldiqlari bilan bir qatorda, solishtirib tekshirish uchun zarur bo'lgan namuna nusxalar ham yuborilishi lozim. Namunalarning hajmi, sifati ekspertiza tekshiruvlarining to'liq va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi ma'lumot va fikr-mulohazalarni inobatga olib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, sud kompyuter-texnik ekspertizasi kibernetik jinoyatlarni faol ochishda maxsus bilim zarurati talab etilsagina, qo'llaniladi. Hal etiladigan masalalar va oldiga qo'yilgan savollar hamda maqsadlar ham unga muvofiq tarzda bo'lishi lozim.

Jpkning 175-moddasiga ko'ra, "Ashyoviy dalillar, ekspert tekshiruvi uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek, ekspertiza o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin".

Tarkibida spirti bo'lgan suyuqliklar ekspertizasi obyektlariga aroq, spirt, vino, konyak, pivo, samogon, idishlar yuqida qolgan noma'lum suyuqliklar va boshqalar ushbu ekspertiza obyektlaridir. Mazkur obyektlar ekspertiza tadqiqoti uchun ekspertga yuboriladi.

Jpkning 188-moddasiga ko'ra, "Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tirik odamning, murdaning, hayvonning, o'simlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi namunalar olishga, basharti ularning ekspert tekshiruvi ekspert oldiga qo'yilgan savollarni hal qilish uchun zarur bo'lsa, haqlidir.

Tirik odamdan o'zida uning xususiyatlarini aks ettiruvchi: biologik – qon, soch, so'lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik – dastxat;

anatomik – teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; shuningdek, ovozning xususiyatlari, kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin.

Namuna tariqasida xomashyo, mahsulot va boshqa materiallardan moddaning turga oid yoki o'ziga xos fizik yoxud kimyoviy xossalarni aks ettiruvchi namunalar olinishi mumkin”.

“Ekspertizaga ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilgan obyekt butunlay yuborilishi maqsadga muvofiqdir. Basharti, dalil sifatida olib qo'yilgan obyektни butunlay yuborish iloji bo'lmasa (spirtli ichimlik katta bochkaga solingan yoki ko'p miqdorda qo'lbola aroq mahsuloti ushlangan), spirtli mahsulotning namunasi tekshirish uchun yuboriladi.

Namuna olinganligi tegishli bayonnoma bilan protsessual rasmiylashtiriladi va ekspertizaga ushbu bayonnoma nusxasi bilan birga taqdim qilinadi.

Ekspertiza oldiga turli joylardan olingan spirtli mahsulotlarning turdoshligini aniqlash masalasi qo'yilganda taqqoslab tekshirish uchun ularning namunalari olinib, tekshirish uchun yuborilishi mumkin.” . Jpkning 193-moddasida umumiy tartibda namunalar olish tartibi berilgan. Unga ko'ra, “Surishtiruvchi yoki tergovchi namuna olinishi kerak bo'lgan shaxsni chaqirtiradi yoki u turgan joyda borib, uni namuna olish to'g'risidagi qaror yoki sudning o'ziga kelib tushgan ajrimi bilan tanishtirib tilxat olinadi va bu shaxsga, mutaxassisga, xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, agar kimdir rad etilgan bo'lsa, bu masalani hal qiladi. Keyin surishtiruvchi yoki tergovchi kerakli harakatlarni bajaradi va ekspert tekshiruvi uchun namunalar oladi. Bunda og'riq bermaydigan hamda inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lmagan ilmiy-texnikaviy vositalar qo'llanilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining sud ekspertizasi to'g'risidagi qonuni.
4. Jinoyat ishini yuritishda ekspertiza: mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2016. 374 b.
5. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2009. 131 b.
6. Sud ekspertizasi bo'yicha tavsiyalar. O'quv-amaliy qo'llanma. 2015 y. 218b.
7. O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi qonuniga sharh. Toshkent – 2017. 176 b.
8. Kriminalistika texnikasi. Toshkent – 2009. 133 b.



9. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari. O'quv qo'llanma.  
Toshkent – 2001 y. 151 b.
10. 10.Lex.uz.
11. 11.Norma.uz.
12. 12.Yurida.uz.
13. 13.O'zbekiston Milliy qonunchilik bazasi.

